

# Jarqo'rg'on tumanida yangi bog'cha foydalanishga topshirildi



Ayni paytda Surxondaryo viloyatida bo'lib turgan Prezident maslahatchisi G'ofurjon Mirzaev viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov bilan Jarqo'rg'on tumanida bo'lishdi. Mutasaddilar dastlabki manzilda "Sag Agro Jarqo'rg'on" MChJ tomonidan homiylik asosida qurib bitkazilgan 50-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi 60 o'rinli binosini foydalanishga topshirish marosimida ishtirok etishdi.

Nuroniylar va mahalla faollari ishtirokida maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)